

UO‘T: 632.937

BUG‘DOY EKINI ZARARKUNANDALARINING TUR TARKIBI VA ULARNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bekchonov Zokir Botirovich

O‘simliklar karantini va ximoyasi ilmiy tadqiqot instituti Xorazm filiali katta
ilmiy xodimi, *elektron pochta*: zokirjonbekjonov82@gmail.com

Annotation. This scientific article provides information on the species composition of pests and their bioecological characteristics found in wheat agraceneses in the Khorezm oasis, which is the northern region of Uzbekistan.

Key words: thrips, grain aphid, larva, hessian fly, worm, spike.

Kirish. G‘alla ekinlarida 500 dan ortiq turdagi zararkunanda zarar yetkazadi. Ular ekinlarning butun vegetatsiya davrida ildiz, poyasi va generativ organlarini zararlaydi. Xosilning sifatiga va miqdoriga salbiy ta‘sir etadi. Bu zararkunandalarning 50 dan ortiq turi sezilarli iqtisodiy zarar yetkazadigan xashorotlar bo‘lib, ulardan tashqari, bir necha turdagi xammaxo‘r zararkunandalar xam ziyon yetqazadi [2].

Bug‘doy O‘zbekistonda asosan kuzda ekiladi (buning uchun eng maqbul muddat sentyabr oyining 3-nchi 10 kunligi bilan oktyabr oyi hisoblanadi). Agar qish sovuqlari tushganicha maqsad - bir tekis o‘sgan va tuplanish xolatida past haroratga chidamli ko‘chatlarga ega bo‘lish bo‘lsa, mart oyidan boshlab begona o‘t, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashib bo‘lg‘usi hosilni saqlab qolish – ikkinchi masaladir [1].

Afsuski, g‘allaning ko‘proq qismi O‘zbekistonda o‘sib turgan g‘o‘za ichiga ekilmoqda. Bu deganiki, bu yer shudgorlanmaydi. SHunday ekan, ko‘pgina begona o‘t, zararkunanda va kasallik qo‘zg‘atuvchilarni muvaffaqiyatli qishlab chiqishiga zamin yaratiladi.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqot ishlari 2023-2024 yillar davomida olib borildi. G‘alla ekinlari zararkunandalarining bioekologik xususiyatlariga doir tadqiqotlarni o‘rganish maqsadida Xorazm viloyatining Urganch va Xonqa tumanlarida ilmiy

tadqiqotlar olib borildi. Hamda bir-biridan nisbatan farq qiluvchi ikkita tumanidan tajriba uchastkalari tanlab olindi. G'alla ekinlari zararkunandalarining tur tarkibini aniqlashda bir qancha atlas aniqlagichlar va xasharotlarni turlarini aniqlashga mo'ljallangan saytlar (insecta.pro) yordamida aniqlandi.

G'alla maydonlarida zararkunandalar lichinkalarini hisobga olish ishlari 3-4 marta amalga oshirildi. Har bir daladan 20 tadan yuzasi 1 m² maydonchadan namunalar olinib, har bitta namunadagi bug'doyning boshhoqlari, poyalari va tuproq kuzatildi. Bunda turli ob-havo sharoitlarida zararkunandaning rivojlanish dinamikasi, unga qarshi kurash choralarining optimal vaqti va kimyoviy kurash chorasining samaradorligi, zarur bo'lganda bunday kurash choralarining takroran amalga oshirish muddati ham inobatga olindi [4].

Olingan natijalar tahlili. Bug'doy va boshqa boshqoli ekinlarga bir qator hasharotlar zarar keltirishi mumkin. Oziqlanishiga qarab bular so'ruvchi va kemiruvchi guruhlariga bo'linadi. So'ruvchi hasharotlarning zarari oqibatida g'allada oqsil, kleykovina va boshqa qimmatli organik moddalarning miqdori ozayib ketadi. Bunday hasharotlar qatoriga asosan: zararli hasva, shira va trips kiradi. G'alladagi, ya'ni bug'doy, o'simliklardagi asosiy so'ruvchi zararkunandalarni tur tarkibi jadvali berilgan (1- jadval).

1-jadval

Bug'doyning asosiy zararkunandalari

№	Zararkunandani nomi		Soni
	O'zbek tilidagi	Lotincha tilidagi	
1	Bug'doy tripsi	Haplothrips trifici Kusal.	++
2	G'alla bitlar		
	A) katta g'alla biti	Sifobion avenae Fabr.	+++
	B) g'alla biti	Toxoptera graminum Rond.	+++
	V) makkajo'xori biti	Sipha maidis Pass.	+
3	Zararli xasva	Eurigaster integriceps Put.	+++

4	SHilimshiq qurt	Lema melanopus L.	++
5	Gessen pashshasi	Mayetiola destuctor Say.	+

Izox: Kam uchraydigan - +, O'rta xisobida uchraydigan - ++, Ko'p uchraydigan -+++

Xorazm viloyati g'alla maydonlaridagi olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida o'rganilgan dalalarda quyidagi zararkunandalar uchrashi aniqlandi: bug'doy tripsi, g'alla bitlari, xususan, katta g'alla biti, g'alla biti va makkajo'xori biti, zararli xasva, shilimshiq qurt va Gessen pashshasi kabi zararkunandalar topildi. Ushbu zararkunandalar ichida. Eng ko'p tarqalgan zararkunandalardan g'alla bitlari va zararli xasva bug'doy dalalarida juda ko'p tarqalganligini, nisbatan kamroq, o'rta xisobida uchraydigan zararkunandalardan bug'doy tripsi va shilimshiq qurtlari tarqalgan va kam uchraydigan bug'doy zararkunandalariga Gessen pashshasi va makkajo'xori biti mavjudligi tajriba natijalaridanbilib olsak bo'ladi.

Xulosa. Olib borilgan tajriba malumotlari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatidagi bug'doy agrobiotsenozlarida eng ko'p tarqalgan zararkunandalardan g'alla bitlari va zararli xasva bug'doy dalalarida juda ko'p uchraydi, nisbatan kamroq, o'rta xisobida uchraydigan zararkunandalardan bug'doy tripsi va shilimshiq qurtlari va kam uchraydigan bug'doy zararkunandalariga Gessen pashshasi va makkajo'xori biti mavjudligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги зараркунандалари. – Тошкент: “Ўрта ва олий мактаб”, 1962. - Б. 368-382.
2. Пўлатов З ва бошқалар. Ғалла экинларини зараркунанда, касаллик ва бегона ўтлардан ҳимоя қилишда пестицидларни маъдан ўғитли суспензияга қўшиб ишлатиш. Т. ТошДАУ. Таҳририят – нашриёт бўлими. 2014 й. - Б.3
3. Ходжаев Ш.Т. Қишлоқ хўжалик экинларини зараркунандалари ва касалликларига қарши инсектицидларни кичик ва катта дала тажрибаларида синашнинг асосий шартлари// Инсектицидлар, акарицидлар, биологик фаол

моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар тўплами. – Тошкент. Узинформагпропром. 1994. - Б.4-18.

4. Мухаммадалиев Ш., Сулаймонов Б., Рашидов М. Экинлар зарарли организмлари ривожланиши ва таркалишининг башорати: (Услубий қўлланма). Т.: 2002. - Б.50-52.

UDK: 633.853.74:631.586:632.6/.7

KUNJUT (*SESAMUM INDICUM L.*) EKINI ZARARKUNANDALARI

Erkinov Xolbek Erkin o'g'li, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot insituti
tayanch doktoranti

Abstract: *the article provides information about the importance of sesame (*Sesamum Indicum L.*) and its pests.*

Key words: *pest, Green grasshopper, Bread beetle, Turkestan corn dung beetle, Sesame stem borer, Tailed grasshopper.*

Kirish. Moyli ekinlar bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 24.01.2009-yil 03-25-18 sonli bayonida aholimizni yog'-moy mahsulotlari bilan ta'minlash, viloyatlarda moyli ekinlar yetishtirish va ularni yog'-moy korxonalarida qayta ishlash hisobiga o'simlik yog'i hajmi va turlarini kuchaytirishga qaratilgan chora- tadbirlar belgilab berildi. Moy olish uchun qadimdan kungaboqar, kunjut, soya, yeryongoq, maxsar va zig'ir kabi moyli ekinlar ekib kelingan. Kungaboqar tarkibida 25,0-55,0 %, kunjutda 46,0-61,0 %, yeryongoqda 46,0-60,0 %, zig'irda 36,0-49,0 %, maxsarda 23,0-45,0 %, soyada 17,0-28,0 % gacha moy qayd qilingan ekinlar urug'ida bor [1].

Kunjut eng qimmatli yog'li o'simliklardan biridir. Uning urug'larida 50-62% yog' va 24% gacha protein mavjud. Kunjut o'zining biologik xususiyatlariga ko'ra, asosan, O'zbekistonning yog'ingarchilik bilan ta'minlangan yomg'irli hududlarida yetishtiriladi. Yomg'irli yerlarda kunjut hosili o'rtacha 1,5 dan 2,0 ts/ga gacha, qurg'oqchil yillarda undan ham past bo'ladi, bu esa iqtisodiy jihatdan foydasizdir. Hosildorlikni oshirish uchun, birinchi navbatda, ekin ekish uchun tuproqlari strukturali va unumdor maydonlarni ajratish, namlikni saqlash va begona o'tlarni yo'q qilish maqsadida o'z vaqtida bahorgi kultivatsiya ishlarini olib borish, zararkunandalar soniga qarshi kurashish zarur [3].

Moyli ekinlar qimmatbaho texnik ekin hisoblanadi. Moyli ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishda zararkunandalar kata ahamiyatga ega. Ularga zarar keltirib yashovchi zararkunanda hasharotlarning 100 dan ortiq turlari mavjud. Asosiy zarar keltiruvchi zararkunandalar kungaboqar parvonasi, tunlamlar, shiralar, uzunburun qo'ng'izlar,

kanalar, maxsar kapalagi, maxsar pashshasi, 8 maxsar uzunburunlari, kunjut qo'ng'izi, zig'ir burgasi, simqurtlar, buzoqboshi va chigirtkalar hisoblanadi [4].

Moyli ekinlarni butun vegetatsiya davrida bir qancha zararkunandalar zararlaydi. Buning oqibatida olinadigan hosilning 40-42% gacha qismi yo'qotilishi mumkin. Moyli ekinlarga ularning ixtisoslashgan zararkunandalardan tashqari, hammaxo'r zararkunandalardan to'g'riqanotlilar, tangaqanotlilar, qattiqqanotlilar, yarimqattiq qanotlilar turkumlariga mansub hasharotlar zarar keltirib yashashini ko'pgina olimlar o'z tadqiqotlarida aniqlashganlar [4].

F.G'afforov va boshqalarning ma'lumotiga qaraganda, kunjut o'simligining o'suv davrida va hosil saqlash vaqtida zarar keltiradigan 12 turdagi havfli zararkunandalar mavjud. Ularning zarar keltirish miqdori tuproq va boshqa sharoitlarga qarab o'zgaradi. Yuqoridagi ro'yxatga olingan 12 turdagi zararkunandalarni zararliligiga ko'ra 3 guruhga bo'lingan: xavfli zararkunandalar (ekinlarga 27-100% darajada zarar yetkazuvchi), o'rtacha xavfli (zarar o'choq xususiyatiga ega va odatda 10 %dan oshmaydi) va amalda zararsiz yoki neytral (ma'lumotlar EPV dan past). Bu zararkunandlarga quydagi hasharotlar kiradi: Uzun dumli chigirtka (*Tettigonia caudata* Sharp), Qarsildoq qo'ng'izlar (*Agriotes nadari* Buyss), Turkiston makkajo'xori qo'ng'izi (*Pentodon dubius* Ball.), Qattiq buzoqbosh qo'ng'izlari (*Rhizotrogus fortus* Reitt), g'alla buzoqbosh qo'ng'izlari (*Cyriopertha glabra* Gebl.), yashil chigirtka (*Tettigonia viridissima* L.) va sariq sikada [2].

Kunjut ekilgan dalalarda ko'pgina zararkunanda turlar uchrashiga qaramay zararkunandalardan: kunjut ko'ng'izi, tunlamlar ekin maydonlari orasida ko'p uchraydi va zarar keltiradi [5].

Kunjut qo'ng'izi (*Asmaeodra ballioni* Gangl.) — qattiqqanotlilar turkumining oltinqo'ng'izlar oilasiga mansub zararkuvanda hasharot. O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va b. mamlakatlarda uchraydi. Lalmikor xududlarda kunjut, kungaboqar va b. soyabongulli begona o'tlar poyasi o'zagi bilan ovqatlanadi. Asosan, kunjut poyasi va ko'saqlariga zarar yetkazadi (hosilining 20% va undan ortig'ini zararlashi mumkin). Zararlangan ko'saqlar muddatidan ilgari ochilib, urug'i to'kilib ketadi, o'simlik quriydi. Qo'ng'izi 4,5—5,5 mm, yaltiroq tanasi do'mboq shaklda. Qanotining ustida nuqtalardan

qosil bo'lgan chiziqlari, juft chiziqlari oralig'ida bir qator oq tukchalari bor. Lichinkaning g'umbakka aylanish oldidi o'z. 7 mm, sarg'ish yoki oqish. Tanasining oldingi bo'g'imlari keyingilariga nisbatan keng. Boshi ko'krak qismining birinchi bo'g'imigacha cho'zilib kelgan. Lichinkasi oyoqsiz, tanasida tuklari bor. Kunjut qo'ng'izi lichinkalik davrida kunjut, kungaboqar yoki begona o'tlarning poyasi ichida qishlab chiqadi. Alr. oyining 2-yarmida ovqatlanib, turgan joyida g'umbakka aylanadi. G'umbalik davri 30 kun. G'umbakdan qo'ng'izlar may oyi oxirida uchib chiqadi. Qo'ng'iz tuxumini kunjut yoki kungaboqar poyasining ichiga yoki novdalariga qo'yadi. Yiliga bir marta avlod qoldiradi.

Kurash choralari: Kunjut qung'iziga gachidamli navlarni ekish, ekinning optimal qalinligini ta'minlash. Yezda va qishda yerni begona o'tlardan toza tutish, kunjut, kungaboqar poyalarini yo'qotish, yerni chuqur haydash [5].

Xulosa. Tahlil qilingan adabiyot manbalariga tayangan holda shuni aytish mumkinki, kunjut agrobiotsenozida juda ko'plab zararkunanda hasharotlar uchrab ular orasida kunjut qo'ng'izi, simqurt, buzoqboshi, chigirtka, turkiston makkajo'xori qo'ng'izi, qarsildoq qo'ng'izlar zarar keltirish darajasi yuqori.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Каримов И.А —Жаҳон иқтисодий — молиявий инқирози: Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. Тошкент, 2009.
2. Гаппаров Ф.А, Аманов Ш.Б. ВРЕДИТЕЛИ КУНЖУТА В УСЛОВИЯХ БОГАРЫ Вестник защиты растений, 2, 2014
3. Хўжаев Ш.Т., Холмуродов Э. Энтомология, қишлоқ хўжалик экинларини ҳимоя қилиш ва агротоксикология асослари. Тошкент, 2010.
4. Яхонтов В.В. Ўрта Осиё қишлоқ хўжалик экинлари зараркунандалари. Тошкент, 1964.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kunjut#cite_note-1